

NATYURMORT TUZISH VA UNI TASVIRLASH USULLARI.

Oktabrov Mohirjon Adhamjon o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Xoshimova Nozima Zohidjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

Anvarova Gulshanoy Akromjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada, tasviriy san'at va muhandislik yo'nalishi talabalarining tasviriy san'at darslarida natura tuzish, natyurmortdagi narsalarni mazmunan bir-biriga bog'lash, pastanovkaga kiradigan har bir narsaning shaklini perspektiv qisqarishlarini, gobarit o'lchamlari jihatidan katta bo'lgan jismlarni joylashtirish, naturada qatnashgan meva, idish, matolar, gips rozetkalar va naturaga qo'shimcha to'ldiruvchi sifatida qo'yiladigon turli xil atributlar, tulumlar va shu kabi naturaning tarkibiy qisimlarini to'g'ri va mazmundorlik jihatidan to'g'ri tuzish uslublarini o'rgatadi.*

Ushbu maqola talabalarda o'quv natyurmortlar tuzish hamda kelajakda mavzuli kompozitsiya darslarida mavzu asosida rasm ishlashda kompozitsiya tuzish, perespektiva, yorug'lik va mazmunan boy kompozitsiyalar yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *Natyurmort, kompozitsiya, surat tekisligi, postanovka, kompozitsion markaz, Simmetrik kompozitsiya, Asimmetrik kompozitsiya, Qiyshiq kompozitsiya, An'anaviy natyurmort, Simbolik natyurmort, Abstrakt natyurmort.*

Annotation: *In this article, students of fine arts and engineering will learn how to create a picture in fine arts lessons, how to connect objects in a still life with each other in terms of content, how to correctly and meaningfully create the shape of each object that enters the pastanovka, how to place objects that are large in size in terms of gobarites, the fruits, dishes, fabrics, gypsum rosettes that are part of the nature, and various attributes that are added as an additional complement to the nature, and how to correctly and*

This article serves as a foundation for students to create educational still lifes, as well as for creating compositions based on themes in future thematic composition lessons, creating perspective, light-rich, and content-rich compositions.

Keywords: *Still life, composition, picture plane, setting, compositional center, symmetrical composition, asymmetrical composition, oblique composition, traditional still life, symbolic still life, abstract still life.*

KIRISH

Ma'lumki, natyurmortda asosiy talablardan biri narsa, o'lcham, rang va tus jihatdan ajralib turish hamda surat tekisligining markaziga yaqin joyga qo'yilishidir. Bu surat mazmunini ochishga so'z boshlovchi vazifasini o'taydi, kompozitsiyaning markazini bo'rtirib ko'rsatib turadi. Lekin u albatta har safar surat tekisligining o'rtasida turish shart emas, negaki unda postanovka (qo'yilma) zerikarli chiqishi mumkin. Ko'pincha rassomlar asosiy predmetni ataylab geometrik markazdan sal silkitib qo'yadilarda muvozanatni saqlash uchun qarama-

qarshi tomonda rangi va och-to'qligi unga zid bo'lgan predmet oladilar. Taniqli natyurmortchi rassomlar Sezon, Shorden, Xrukpiylar bu usuldan foydalanganlar.

Bir xil narsalardan bir necha ko'rinishdagi natyurmortlar tuzish mumkin, lekin har gal ham hajmlarning katta-kichikligi va bo'laklarning och-to'qligi o'rtasidagi muvozanat saqlanib qolishi kerak. Bitta natyurmortda bir necha teng ahamiyatli kompozitsion markaz bo'lmaydi, unda natyurmortning butunligiga putur yetadi. Har vaqt natyurmortdagi narsalar o'rtasida uzviy bog'lanish bo'lsa, shu bilan birga ulardan foydalangan yoki foydalanadigan inson bilvosita yaqqol sezilib tursa u ma'nodor tuyuladi. Natyurmortni o'rnatish vaqtida predmetlarni bir necha marta qo'yib ko'rish, ular birgalikda qanday ko'rinishini sinchiklab kuzatish agar ma'qul bo'lsa chizishni boshlash, ma'qul bo'lmasa yana qayta-qayta bu ishni takrorlash va yaxlitlik paydo bo'lguncha davom ettirish kerak.

Natyurmort tuzishning asosiy usullari

1) Simmetrik kompozitsiya

Simmetrik kompozitsiya – bu barcha elementlar bir-biriga teng va muvozanatli tarzda joylashtirilgan kompozitsiya usulidir. Bunday natyurmortda ob'ektlar o'zaro koordinatsiya bilan, yengil va betaraf burchaklar yordamida joylashtiriladi. Bunda muvozanat, to'g'ri o'lchamlar va joylashuvga katta e'tibor beriladi.

2) Asimmetrik kompozitsiya

Asimmetrik kompozitsiyada ob'ektlar bir xil o'rin va kattalikda joylashmaydi. Bu usulda biror bir ob'ekt bosh rol o'ynaydi, qolganlari esa uni to'ldirish va yoritishda yordamchi vazifasini bajaradi. Asimmetrik kompozitsiyalar odatda ko'proq harakat va dramatismni ifodalash uchun ishlatiladi.

3) Qiyshiq kompozitsiya

Qiyshiq kompozitsiya usulida ob'ektlar burchakli va o'zgaruvchan tarzda joylashtiriladi. Bu usulda tasvirlangan predmetlar ko'proq dinamiklikni va harakatni o'zida aks ettiradi. Asosan, qiyshiq chiziqlar va egilgan formalar yordamida kompozitsiya shakllantiriladi.

4) Tezkor kompozitsiya

Tezkor kompozitsiya – bu tez va sodda shaklda tashkil etilgan tuzilma bo'lib, unda ob'ektlar bir-biriga yaqin va tezkor joylashtirilgan. Bu usulda san'atkor ko'pincha xatti-harakatning o'ziga va obrazlarning spontan ifodalashiga diqqat qaratadi.

Natyurmortning turlari

Natyurmort janrida bir qancha turlar mavjud bo'lib, ular o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1) An'anaviy natyurmort

An'anaviy natyurmortda ko'proq kundalik hayotda uchraydigan oddiy predmetlar tasvirlanadi. Bunga mevalar, gullar, idishlar, suv bilan to'ldirilgan kupalar va boshqa kichik ob'ektlar kiradi. Bu turdagi natyurmortlar tasvirlanadigan ob'ektlarning tabiiy go'zalligini ta'kidlashga qaratilgan.

2) Simbolik natyurmort

Simbolik natyurmortda tasvirlanadigan predmetlar ko'pincha ma'naviy yoki axloqiy ma'noga ega. Bu turdagi natyurmortlarda predmetlar orqali hayotning muhim jihatlari, masalan, vaqt, o'lim, yoki insonning maqsadi haqida fikrlar bildirilib, ularga ma'lum bir ramziy ma'no yuklanadi.

3) Abstrakt natyurmort

Abstrakt natyurmortda san'atkor predmetlarning shaklini va rangini tasvirlashda erkin yondashadi, predmetlarning aniq ma'nosi yoki shakli qoldirilmaydi. Bu turdagi natyurmortda asosiy maqsad shakl, rang, va tuzilmaning estetik uyg'unligini yaratishdir.

Natyurmortning muhim tomonlaridan biri tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy joylanishidir. Postanovkaga kiradigan narsalarning kattasi orqaroqda, maydalari oldinroqda biri ikkinchisini bir oz berkitib turadigan qilib qo'yiladi Ammo narsalarning tubi qisman bo'lsa ham ko'rinib turgani ma'qul.

Shunda ularning o'zaro joylashuvini tasvirlash oson bo'ladi. Natyurmortdagi narsalarni mazmunan bir-biriga bog'lash maqsadida unga cho'ziqroq narsa kiritiladi. Sur'at tekisligining asosidan kompozitsiya markaziga qaratib qo'yilgan vaza, gullar to'plami, mo'yqalam va xokazolar surat mazmunini ochishga yordam beradigan "kalit" bo'lib tomoshabin nigohini kompozitsiya markaziga yo'naltiradi. Natyurmort murakkab va ko'p buyumli bo'lgan taqdirda eng ahamiyatli narsa ikkinchi planda joylashtiriladi. Natyurmortning fazoviy holatini yaqqolroq tasvirlash uchun birinchi planda uncha katta bo'lmagan, ammo yorqin narsa qo'yiladi. Natyurmortning ufq tekisligiga nisbatan qanday joylanishi ham katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, ko'z balandligi pastroqqa qo'yilgan natyurmort yopiq predmet tekisligida to'la-to'kis ko'rinib turadi. Narsalarning asoslari ularning o'zaro joylashishi yaqqol ko'rinadi va tasvirlash uchun qulay bo'ladi. Masalan, vaza va gullarni shunday joylashtirishimiz kerakki ular ko'rish maydonida muvozanatli holatda ko'rinsing. Alohida buyumlarni o'z o'rniga qo'yishdan avval albatta natyurmort o'rnatiladigan joyni aniqlash lozim bo'ladi. Aytaylik, devor yaqinida stol bo'lsin. Birinchi navbatta stol satxi bilan uning orqasidagi devor orasidagi nisbat aniqlanadi. Shundan so'ng natyurmortni o'rnatasa bo'ladi. Ishni eng yirik narsadan boshlaymiz, ya'ni eng yirik predmet birinchi joylashtiriladi. Natyurmortning atrofdagi qismini hayolan chegaralab, vazani markazdan o'ng tomonga bir oz siljitib qo'yib ko'ramiz. Devor yaqinida joylashgan idish e'tiborni o'ziga jalb qilish bilan birga stol va devorning kerakli qismini ko'z bilan qamrab olishga yordam beradi. Endi garchi muvozanat sodir bo'lgan bo'lsada, bu buyumlar o'rtasidagi aloqadorlik yaqqol ko'rinmayapti, vaholanki tomoshabinning nigohi bitta narsadan ikkinchisiga sakrab o'tishi kerak.

Narsalarning shaklini va fazoviy joylashuvini to'liqroq ochib berish uchun yorug'lik nurlari oldidan va yondan tushadigan bo'lishi kerak. Shunda natyurmortdagi predmetlarning yorug'lik manbaiga qaragan tomonidan yorug'lik, qarshi tomonda soya, yarim soya, refleks va tushuvchi soyalar yaqqol ko'rinib, bular hammasi birgalikda ularning hajmdor ekanligini yaqqol ko'rsatib turadi. Birinchi plandagi narsalarning aniqroq ko'rinishini taminlash uchun natyurmortning bir qismini maxsus to'siq bilan berkitish mumkin, bunda ikkinchi plandagi narsalarning shakllari umumlashadi, birinchi plandagilar esa ravshanroq ko'rinadi. Tabiiy yorug'likning kuchi yetarli bo'lmasa natyurmortning yon tomoniga sun'iy yoritkich qo'yiladi. Shunda oldindagi narsalarda yorug'-soya kontrasti keskin bo'lib, ularning hajmdorligi bo'rtib ko'zga tashlanadi, sirtlari yaqqol ko'rinadi. Ikkinchi plandagi narsalarda esa ziddiyat kamroq seziladi. Ba'zi sirtlarga yorug'lik nurlari ko'proq tushganligi sababli ravshan, ba'zilari esa qoramtir bo'lib ko'rinadi. Narsa sirtlarining ravshanlik darajasi u bilan yorug'lik manbai sirtidan qanchalik uzoqda bo'lsa, sirt shunchalik nursiz bo'ladi, aksincha manba yaqin joylashsa yoritishi kuchli bo'ladi. Yana shuni

hisobga olish kerakki, yoritgichga yaqinroq joylashgan narsalarda uzoqroqdagiga nisbatan yorug' va soya ziddiyati keskinroq seziladi. Sirtlarning yoritilish darajasi yorug'lik nurlarining yo'nalishiga ham bog'liq. Yorug'lik nurlari sirtga to'g'ri burchak ostiga, yani tik yo'nalsa, bu sirt eng yorug' bo'lib ko'rinadi. Yorug'lik nurlari qiyalab, sirtning yonidan o'tsa, unga yorug'lik ham tushadi va natijada u holiroq bo'lib ko'rinadi. Undan tashqari sirtning yoritilish darajasi ayni shu sirtning tuzilishiga bog'liq yaxshiroq, silliq sirti yorug'likka ko'proq qaytaradi, g'adir-budir, qoramtir sirt esa ko'proq nurlarni yutib, oz qismini qaytaradi. Shularning hammasini hisobga olgandagina natura bilan tasvir o'rtasida haqiqiy o'xshashlikka erishish mumkin.

Rasm ishlashning yakunlovchi bosqichida natura bilan tasvirni yana yaxshilab taqqoslab, umumlashtirib chiqish lozim. Buning uchun rasm ishlanayotgan taxta(planshet) ni naturaga yaqinroq yerga qo'yib, o'tirgan joydan har ikkalasiga tez-tez ko'z yuritib qarasa ham bo'ladi. Bunda ba'zi soyalar qorayib ketgan bo'lsa yoki natyurmortning bir qismi ajralib ko'rinib qolgan bo'lsa, ularni tuzatib, reflekslar juda ravshan bo'lib qolgan bo'lsa bir oz xiralashtirib, natura bilan uning tasviri o'rtasida to'la o'xshashlikka harakat qilinadi. Shunday qilib, tasvirni natura bilan muttasil solishtirib borish, rasm chizishda ma'lum izchillikka amal qilish, asta-sekin umumiy tasvirdan qismlar tasviriga o'tish tartibida olib borish va oxirida yana yaxlitlashtirib natyurmortning haqqoniy tasvirini hosil qilinadi. Endi eng muhimi, qo'ygan natyurmortimiz o'zimizga yoqadigan bo'lishi lozim, shunda uni ishtiyoq bilan tasvirlaymiz. Birinchi navbatta, tanlangan narsalarning yagona maqsadga qaratilgan yaxlit bo'lib ko'rinadigan qilib qo'yib ularni devor yaqiniga bir qator qilib terib qo'yamiz, keyin fondan goh uzoqlashtirib, goh yaqinlashtirib qarab kuzatamiz.

Nurlarning kuchi kamayib borgan sari uchinchi plandagi narsalarda qarama-qarshilik yana ham mayinlashadi, ularning chegaralari fonning to'q joylari bilan umumlashib ko'rinadi. Natyurmortlarga qo'shimcha kiritiladigan narsalar shunday holatda qo'yilishi kerakki, u har ikkala buyumning bir-biri bilan mazmunan boyiydigan bo'lib ko'rinadi. Endi postanovkaning yoritilish masalalarini hal qilish lozim. Yorug'lik nurlari natyurmortga bir tomondan tushadigan qilib uning yon tomonidan yuqoriroqda yoritgichlar o'rnatilsa, qo'yilgan narsalarning shakli yaqqol ko'rinadi, shaxsiy va tushuvchi soyalar aniq ko'zga tashlanib turadi. Ma'lumki, narsalar silliq va g'adir -budir, yaltiroq va xira, tekis va notekis sirtli bo'ladi. Ularning qanaqa ekanligini natyurmortda ko'rsatishdan maqsad, qo'yilgan har bir narsaning shakli yaqqol ko'rinadi, shaxsiy va tushuvchi soyalar aniq ko'zga tashlanib turadi. Maqsad har bir narsaning shakli va tuzilishini aniq ochib berishdir. Masalan, idishlar har xil materiallardan ishlangan bo'ladi, chinni, spool, shisha, sirlangan yoki ruxlangan metallardan va hokazo. Bularning fakturasini tasvirlab ko'rsatish uchun alohida usullar qo'llanilmaydi, faqat ularning sirtidagi yorug', yarimsoya, soya, refleks va bliklarning o'z o'rni to'g'ri topilsa bas.

Natyurmortlarning tarkibiy qismiga burmalangan gazlamalar kirish bilan mazmundorlik oshadi. Tasvirda gazlamalarning o'ziga xos tuzilishi, ulardan taxlam va burmalarning shakli orqali ifodalanadi. Shuning uchun rasmda ayni shu gazlamaga o'xshashlikka erishishning birdan-bir to'g'ri yo'li taxlamlarning shaklini yorug' va soyalar vositasida batafsil ishlab chiqishdir. Dastlab natyurmortlarda dag'al, sidirg'a matolardan foydalanish, ulardan yirik burmali yaxlit taxlar hosil qilish mumkin, bu esa tasvirlash uchun qulay. Keyinchalik malakaning ortishi bilan natyurmortlarni murakkablashtirib, mayin to'qilgan har xil matolardan

taxlash mumkin. Natyurmortlarning asta-sekin murakkablashtirish darajasi narsalar sonini ko'payish, ularning turli-tuman rang-barang shakl va o'lchovga ega bo'lishi hisobiga amalga oshiriladi. Quyidagi narsalar albatta, murakkabroq, yirik narsa bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Natyurmort tuzishda tajribasi yo'q odam ham qandaydir ichki hissiyoti asosida chiroyli guldondagi rang-barang gullar yoniga olma qo'yib tasvirlanishi mumkin.

Murakkab natyurmortlar ustida ishlashning o'ziga xosligi, ularning kompozitsiyasi mukammalroq hal etishda, har bir narsaning shaklini atroflicha fikr yuritib aniqlashda har bir narsaning sirtini tasvirlab, uning materialini aniq ko'rsata olishda namoyon bo'ladi.

Xulosa: Natyurmort — tasviriy san'atda juda keng tarqalgan va ko'plab ifodalash vositalarini o'z ichiga olgan janrdir. Natyurmortni tuzish va tasvirlashda san'atkorlar kompozitsiyani tashkil etishda ranglar, yorug'lik, tekstura va predmetlar orasidagi aloqalarni mukammal tarzda uyg'unlashtirishga harakat qiladilar. Har bir usul va uslub o'ziga xos jihatlarni ta'kidlaydi va natyurmort san'ati nafaqat ko'zga tashlanadigan ob'ektlarni, balki ularning chuqur ma'nolarini, his-tuyg'ularini va tafakkurlarini ifodalashga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adhamjon o'g'li, O. M. (2024). BOLALARNING TASVIRIY FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISH, USLUB VA YO'NALISHLARI, SINFDA TASVIRIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(20), 115-121.
2. Mohirjon, O. (2023). TASVIRIY SANAT MASHGULOTLARINING OZIGA XOSLIGI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(15), 464-470.
3. Adhamjon o'g'li, O. M. (2024). QAYSI BIRI YAXSHIROQ: NATURADANMI YOKI FOTOSURATDANMI?. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 3(31), 222-225.
4. Nabiyev, B. (2022). NATYURMORT KOMPOZITSIYASINI TUZISH VA TASVIRLASHDA BOSQICHLAR ASOSIDA ISHLASHNING AHAMIYATI. *Academic research in educational sciences*, 3(12), 334-338.
5. Бобур, А.Ў.Н. (2022). Тасвирий санъат асарларини яратишда композиция конунларининг илмий асосларидан фойдаланиш. *Science and Education*, 3(2), 1087-1095.
6. Komoldinov, S., & Sattarov, F. (2024). Ijodiy asar yaratish bo'yicha metodik tavsiyalar. *Scientific-theoretical journal of International education research*, 2(1), 42-46.
7. Komoldinov, S. (2023, December). QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA KOMPOZITSIYANING AHAMIYATI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions"* (Vol. 1, No. 01).
8. Rakhimov, K. (2023). THE PLACE OF GRAPHICS IN THE FINE ARTS. *Solution of social problems in management and economy*, 2(2), 5-8.
9. Rakhimov, K. (2023). THE ROLE OF PORTRAIT ARTISTS IN FINE ARTS. *Models and methods in modern science*, 2(2), 13-19.



10. Boltaboyev A. X. O‘quv jaryonida qalamchizgi va qoramalarni bajarishda talabalarni kasbiy-pedagogik kompetensiyasini rivojlatirish texnologiyasi. // Ilmiy axborotnoma. – Namangan, 2023. – № 7. – B. 553–558.

11. D.SH.Badirdinov (2023) BO‘LAJAK TASVIRIY SAN‘AT O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA GRAFIKANI O‘QITISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH. Badiiy ta‘limning dolzarb muammolari, integratsiya va istiqbol tendensiyalari Respublika ilmiy-amaliy anjumani. 2023 yil 28-sentyabr. 544-547